

UO'K(UDC, УДК):81-2

## CEFR MEZONLARI ASOSIDA XORIJIY TIL O'QITISHNING INGLIZ VA ARAB TILLARIDAGI QIYOSIY TAHLILI<sup>27</sup>

*Norboyev Zafar Abdumuminovich*  
*Mustaqil tadqiqotchi*  
*Samarqand davlat chet tillar institute*  
*Toshkent, O'zbekiston*  
*E-mail: [z.norboyev88@gmail.com](mailto:z.norboyev88@gmail.com)*  
*ORCID ID: 0000-0001-9753-4591*

### ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolamizda CEFR ma'lumotnomasining tarixi, rivojlanish bosqichlari, CEFRning boshqa xorijiy tillarga, xususan, arab adabiy tiliga tarjima qilinishi va integratsiya qilinishidagi ba'zi holatlarning qiyosiy tahlili tavsiflangan. Ilmiy tadqiqotimiz maqsadlaridan biri bo'lgan CEFRning boshqa xorijiy tillarga tarjima qilinishi natijasida vujudga kelgan muammolar va ularning qiyosiy tahlillari o'rganilgan. Shuningdek, CEFR va uning mazmun-mohiyati arab tiliga integratsiya qilinishida vujudga kelgan til xususiyati va lingvistik muammolar, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy tadqiqotchilarning qarashlari va ilmiy xulosalari keltirilib o'tilgan. CEFRning mezonlari ingliz va arab tillarida qiyosiy tahlillar asosida o'rganilganligi ochib berilgan. CEFR arab tilini xorijiy til sifatida o'qitish tizimiga moslashtirish jarayonida til xususiyatini to'g'ri hisobga olish integratsiya jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qilishi bo'yicha ilmiy qarashlar keltirib o'tilgan.

### KALIT SO'ZLAR

The Threshold Level, The Common European Framework of Reference for Languages, Cambridge University Press, olti darajali yondashuv, arab tilini xorijiy til sifatida o'rgatish (TAFL), A1, A2, B1, B2, C1, C2.

**Received:** Aprel 23, 2025

**Accepted:** May 18, 2025

**Available online:** September 3, 2025

<sup>27</sup>**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Norboyev Z. CEFR mezonlari asosida xorijiy til o'qitishning ingliz va arab tillaridagi qiyosiy tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 3(7) — B. 399-409.

## COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN ENGLISH AND ARAB BASED ON CEFR CRITERIA

*Norboyev Zafar Abdumuminovich*

*Independent researcher*

*Samarkand State Institute of Foreign Languages*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [z.norboyev88@gmail.com](mailto:z.norboyev88@gmail.com)*

*ORCID ID: 0000-0001-9753-4591*

---

### ABSTRACT

This scientific article describes the history of the CEFR reference book, its development stages, and a comparative analysis of some cases of its translation and integration into other foreign languages, in particular into literary Arabic. The problems that arose as a result of the translation of the CEFR into other foreign languages, which is one of the goals of our scientific research, and their comparative analysis are studied. Also, the linguistic features and linguistic problems that arose in the integration of the CEFR and its content into the Arabic language, the views of scientific researchers and scientific conclusions on their elimination are presented. It is revealed that the CEFR criteria were studied on the basis of comparative analyses in English and Arabic. Scientific views are presented on the fact that taking into account the linguistic features of the CEFR in the process of adapting the Arabic language as a foreign language into the teaching system serves to accelerate the integration processes.

---

### KEY WORDS

The Threshold Level, The Common European Framework of Reference for Languages, Cambridge University Press, Six-level approach, Teaching Arabic as a foreign language (TAFL), A1, A2, B1, B2, C1, C2.

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА НА АНГЛИЙСКОМ И АРАБСКОМ ЯЗЫКАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ CEFR

*Норбоев Зафар Абдумуминович*  
*Независимый исследователь*  
*Самаркандский государственный*  
*институт иностранных языков*  
*E-mail: [z.norboev88@gmail.com](mailto:z.norboev88@gmail.com)*  
*Тел: +998-90-282-77-00*  
*ORCID ID: 0000-0001-9753-4591*

---

### АННОТАЦИЯ

В научной статье описывается история создания справочника CEFR, этапы его развития, а также проводится сравнительный анализ некоторых случаев его перевода и применения CEFR к другим иностранным языкам, в частности, к литературному арабскому языку. Одной из целей данного научного исследования является выявление проблем, возникших в результате переноса критериев CEFR на другие иностранные языки, и их сравнительный анализ. В нем также описаны лингвистические проблемы, обусловленные различиями языков, возникшие в ходе интеграции CEFR и его содержания в изучение арабского языка, а также приводятся мнения и научные выводы ученых-исследователей о путях их преодоления. В статье представлено изучение критериев CEFR на основе сравнительного анализа английского и арабского языков. В заключении сформулирован научный вывод о том, что правильный учет специфики языка в процессе адаптации CEFR к системе преподавания арабского языка как иностранного будет способствовать ускорению интеграционных процессов.

---

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Пороговый уровень, CEFR (The Common European Framework of Reference for Languages), Cambridge University Press, шестиуровневый подход, преподавание арабского языка как иностранного (TAFL), A1, A2, B1, B2, C1, C2.

## KIRISH

XIX-asrning 70-80-yillarida Yevropada xorijiy tillarni puxta o'rganish, o'rgatish va baholashda yagona tizim joriy qilish masalasida ilk fikr va mulohazalar qizg'in muhokamalarga sabab bo'la boshladi. 1970-yillarning o'rtalarida Yevropaning "The Threshold Level" nashri orqali xorijiy tillarda kommunikativ yondashuv asosida til siyosatini olib boorish g'oyasi ilgari surildi. 1991-yilda Shvetsariyada o'tkazilgan hukumatlararo simpoziumda CEFRning ilk parametrlari muhokama etildi va bu 1996-yilda tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumotnomasi (CEFR – The Common European Framework of Reference for Languages) joriy qilinishi bo'yicha bir qarorga keldi va ikki loyiha ko'rinishida dastlabki versiyasi taqdim etildi. CEFR bu – ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun Yevropa bo'ylab til dasturlari, o'quv dasturlari, darslik va turli xil o'quv materiallarini yaratish, ko'rsatmalar berish va imtihonlarni o'tkazish bo'yicha ma'lumotnomadir. CEFR ma'lumotnomasining dastlabki shakli 1996-1998-yillarda sinovdan o'tkazildi va 2001-yili keng omma doiradagi til foydalanuvchilari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida Yevropa Kengashining ikki rasmiy tillari (ingliz va fransuz)da qayta ko'rib chiqildi va Cambridge University Press nashriyoti tomonidan nashr etildi (Aguilar V., Canada L.M., Santillan Grimm P., 2010, 22-26).

2006-yilning aprel oyiga kelib CEFR 21ta - alban, arman, bask, katalon, xorvat, chex, fin, friul, galisiya, gruzin, venger, italyan, yapon, maldovan, polyak, portugal, rumin, rus, serb, ispan va ukrain tillariga tarjima qilindi. Hozirgi kunga kelib CEFR 40 tilga tarjima qilingan va CEFR mezonlari deyarli barcha tillarga kirib bordi desak mubolag'a bo'lmaydi. CEFR til ta'lim siyosatiga izchillik va oshkoralikni birinchilardan bo'lib olib kirganidan tashqari, o'z yondashuviga ko'ra ko'p qamrovlilik, shaffoflik va izchilikni ham o'rnatdi (Ayoob Y., 1987, 162-169). CEFRning joriy qilinishi Yevropa Kengashiga a'zo bo'lgan ko'plab davlatlarda va undan uzoqda bo'lgan davlatlarda xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o'rganish va o'rgatish tizimiga darhol va sezilari ta'sir ko'rsatdi.

## ASOSIY QISM

2008-yilda CEFR ma'lumotnomasining arab tiliga tarjima qilinishi, ushbu hujjatning barcha mazmun-mohiyati arab tilini xorijiy til sifatida o'qitish va o'rgatish tizimiga ham kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Butun dunyo davlatlarida bo'lgani kabi, arab tili rasmiy davlat tili hisoblangan 22 arab davlatida ham CEFR orqali institutlar, davlat idoralari va xususiy til maktablari o'z kurslarini yangi CEFR mezonlari bo'yicha yangilashni boshladilar. Bu yangilanishlar ortidan arab tilini xorijiy til sifatida o'rgatish va o'qitishda rejalashtirish, test qilish, sertifikatlash va nutq ko'nikmalarini darajama-daraja, bosqichma-bosqich o'stirib borishga erishildi. CEFR arab tiliga ham "Olti darajali yondashuv" (A1, A2, B1, B2, C1, C2) chet tili kurslari g'oyasini ilgari surgan holda kirib keldi va buni tendensiyaga aylantirdi. Natijada, ushbu yondashuv arab tilini xorijiy til sifatida o'rgatish va o'qitish tizimi tomonidan qabul qilinishi bilan, darsliklar va til kurslari materiallari kitoblari muqovasida o'z aksini topishni boshladi (Council of Europe., 2001, 4-5).

Yevropa tillari kabi arab tilida ham barcha darajalar quyidagi ko'rinishda tarmoqlantirildi:

A1, A2 darajalari. Bu darajalar **boshlang'ich foydalanuvchilar** uchun belgilangan darajadir. (التمهيدي A1، الأساسي A2)

B1, B2 darajalari. Bu darajalar **mustaqil foydalanuvchilar** uchun mo'ljallangan. (المتوسط B1، فوق المتوسط B2)

C1, C2 darajalari. Bu darajalar tajribali, **malakali va mutaxassislar** uchun mo'ljallangan. (المتقدم C1، فوق المتقدم C2)

Har bir daraja xorijiy tilning ichki xususiyatidan kelib chiqqan holda "ortiqcha darajalar" bilan to'ldirilib kelinmoqda. Masalan, **A1.2 darajasi A1 darajasini, C1 2.1 darajasi C1 darajasini** to'ldirish uchun ishlab chiqilishi mumkin. Ushbu ortiqcha darajalar "kesishish nuqtalari" hisoblanadi. Shunday qilib, bu moslashuvchan tarmoqli yondashuv CEFRning har bir foydalanuvchisiga umumiy ma'lumot darajalari sxemasini va CEFR mezonlarini ta'lim ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradigan tizimdir (Council of Europe., 2-9).

XVI-XVII asrlarda arab tili diniy maqsadlarda, ba'zan tijorat maqsadlarida foydalanilar edi. Shundan so'ng ikki asr davomida ya'ni 1960-yillarga kelib dunyo tillaridan biri sifatida e'tirof etila boshlandi. So'ngra, xorijiy va ikkinchi chet tillaridan biri bo'lib xizmat qilish darajasiga qadar ko'tarildi. XXI asrga kelib esa, arab tili butun Arab davlatlari ligasining rasmiy tili, Birlashgan millatlar tashkiloti va Afrika Ittifoqi tashkilotlarining rasmiy tili sifatida ham jahon tillaridan biri hisoblanmoqda. 1970-yillardan keyin arab davlatlari tomonidan "Arablashtirish siyosatining" ilgari surilishi oqibatida dunyoning ko'plab nuqtalarida arab tilini xorijiy til yoki ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar soni oshib bordi (Norboyev Z., 2022, 2-5). Tadqiqotchi Nielsonning ilmiy izlanishlari natijasiga ko'ra, amerika universitetlarida 1998-2002-yillar oralig'ida arab tili kurslariga til o'rganuvchilarini qabul qilish ko'rsatkichlari 92,5% foizga oshganini ta'kidlaydi. Shunga o'xshash o'sish ko'rsatkichlarini Yevropa Kengashi davlatlarida ham ko'rishimiz mumkin. 1990-yillardan keyin Yevropa davlatlari hududlariga arab millatiga mansub talabalar va musulmonlarining ko'chib kelishi ko'rsatkichlarining ortib borishi natijasida, 2005-yillarda ba'zi yevropa universitetlarida Yaqin Sharqdan kelgan talabalarning 75% gacha bo'lganini Nielson o'z tadqiqotlarida sanab o'tadi. Shuningdek, ishbilarmonlik olamida muvaffaqiyatga erishish uchun ko'plab yirik tadbirkorlik olami vakillari xitoy, hind, yapon, koreys va arab tillarini o'rganishga katta qiziqish qaratishdi (Ghersetti A., Facchin A., 40-43).

Til o'rganuvchilar arab tilini o'rganish davomida bir qancha ijtimoiy-lingvistik holatlardan kelib chiqqan bir qator muammolarga duch keladilar. Bu holatlardan biri arab tilida diglossiya holatining mavjudligidir. Ya'ni arab tilining ikki xil adabiy arab tili va odatiy so'zlashuv tilining bir-biriga o'zaro yaqin ta'siri bilan tavsiflanadi. Bu holat til o'rganuvchilarida arab tilini o'rganishni qiyin deb qarashlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ilmiy tadqiqotchilardan biri Stivens o'zining ilmiy tadqiqotlari natijasida shunday deydi: "Arab tilini o'rganish davomida til o'rganuvchilar bu tilni o'rganish boshqa tillarga nisbatan qiyin deb qarashliklari, nisbiy bo'lgan qiyinchiliklarga va murakkabliklarga duch kelishida emas, balki ular ko'p kuch sarflab o'rgangan tilini og'zaki muloqotga to'g'ridan-

to'g'ri qo'llab bo'lmagandan so'ng tushkunlikka tushishi oqibatida katta muammolarga duch keldim deb o'ylashidadir". Shu sababli faqat arab adabiy tili kurslarini til o'rganuvchilariga taklif qilish nafaqat til o'rganuvchilarining til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini pasaytiradi, balki arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishini butunlay o'zgartiradi. Munter Yunes shu kabi muammolarni bartaraf etish uchun o'zining "integrallashgan yondashuv" nomli taklifini ilgari surdi. Bu yondashuv bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan o'qitish falsafasidir. Integrallashgan yondashuv arab adabiy tili va muloqot tilini o'rganishni birlashtiradi va bu bilan arab tilining diglossik tabiatini va arab dunyosining ijtimoiy-lingvistik voqeliklarini aniq va tabiiy tarzda aks ettiradi.

CEFR 2008-yilda Gyote instituti tomonidan arab tiliga tarjima qilindi. Hozirgi kunga qadar xorijiy til institutlari tomonidan CEFRni arab tili ta'limiga kiritish masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi davom etmoqda. Norrbomning ta'kidlashiga ko'ra CEFR mintaqada, ayniqsa, Fors ko'rfazi davlatlarida ham nazariy ham amaliy jihatdan o'rganish va amaliyotga tadbiiq qilishda keng dalillar bilan o'rganish rivojlanib bormoqda. CEFRning arab tili ta'limiga joriy qilinishi bo'yicha Toonen, Xalifa, Amin Sheb, Abdul Salam, Faschin, Aguilar, Pashova Soliman kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida atroflicha o'rganib kelishmoqda. Shuningdek, 2011-yilda Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahridagi HCT Dubay erkalar kollejida "CEFR va uning Fors ko'rfazi davlatlar uchun integratsiyasi" mavzusida birinchi ikki yillikka bag'ishlangan CEFR konferensiyasi tashkil qilindi. Konferensiyaning asosiy tashkilotchisi Kembrij universitetining Kembrij ingliz tilini baholash bo'limi va Birlashgan Arab Amirliklarining Oliy texnologiya kollejlari tomonidan birgalikda tashkil qilindi. Konferensiyada Yevropa va Yaqin Sharqdan kelgan olimlar CEFRning Fors ko'rfazi mintaqasi uchun, ayniqsa, ingliz tili va CEFRning arab tilini o'rgatish va o'qitishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratishdi. 2014-yilda "CEFR va arab tilini o'qitish: sharh va ufqlar" mavzusidagi birinchi ilmiy-amaliy konferensiya Monrealda tashkil qilindi.

2014-yilda Madridda “Arab tilini xorijiy til sifatida o‘rgatish” (TAFL) bo‘yicha o‘tkazilgan konferensiyada Viktoriya Agilar o‘zining chiqishi va ilmiy tadqiqotida “Arab adabiy tili” va “Marokash lahjasi”ni bir vaqtning o‘zida o‘qitish va o‘rgatish amaliy uslubini ilgari surdi. Bu uslubni amalga oshirishda u “Besh til ko‘nikmalari”ni o‘z ichiga olgan til testlaridan foydalanadi. Agilarning olib borgan ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra barcha til ko‘nikmalarini bir vaqtning o‘zida ham arab adabiy tilida, ham marokash lahjasida foydalanish tavsiya etilmagan. Unga ko‘ra tinglab tushunish va o‘qish nutq ko‘nikmalarini o‘rgatishga oid testlardan ham arab adabiy tilida ham marokash lahjasida foydalanish mumkin, yozish ko‘nikmasini o‘rgatishga oid testlardan faqat arab adabiy tilida foydalanish mumkin. Gapirish va o‘zaro ta’sir qilish ko‘nikmalarini o‘rgatishga oid testlardan faqat marokash lahjasida foydalanish mumkin degan qarashni ilgari surdi.

CEFRning olti darajali yondashuvi arab tiliga moslashishida arab tilining ichki xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak ba’zi bir mulohazalar kelib chiqadi. Unga ko‘ra CEFRning boshlang‘ich darajasini boshlash davomida til o‘rganuvchilarda arab yozuvini bilmasdan kelish holatlari uchraydi (Aguilar V., Manzano M.A., Canada L.M. va boshqalar, 2014, 201-212).

Til o‘rganuvchi arab yozuvini bilmasdan turib o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qiynaladi. Shuning uchun olti darajali yondashuvda arab tilining boshlang‘ich darajasi A daraja deb olinsa, u ikkiga ya’ni A1 va A2 darajalariga bo‘linadi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf qilish uchun arab tili CEFR darajalarida qo‘shimcha A 1.1, A1.2 va A2.1 darajalari bo‘lishi kerak degan fikrlar ham mavjud. Hugueras va Faschin o‘zlarining tadqiqotlarida Yevropa va Amerikada arab tilini o‘rganuvchilar pastroq daraja bilan tilni o‘rganishni boshlasa, arab tilini o‘rgatishda nutq ko‘nikmalaridagi fonologik, orfografik va orfoepik muammolardan holi bo‘lishlarini ta’kidlab o‘tishganini CEFRning universal moyillikka ega ekanligi bilan ta’riflaydi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerak-ki, CEFR arab tili ta'limiga integratsiya qilinishi natijasida arab tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ko'plab yutuqlarga erishila boshlandi. Arab tilini o'rganishda vujudga kelgan ayrim muammolarga yechim sifatida berila boshlandi. Arab tilini xorijiy til sifatida o'qitish CEFR arab tiliga tarjima qilingunga qadar eski uslubda amalga oshirilgan. CEFR arab tili ta'lim tizimi kontekstiga kirib kelganidan so'ng tilga oid mavzularni faqat grammatika va tarjima bilan berish emas, balki nutqiy ko'nikmalar orqali darajama-daraja o'stirib, rivojlantirib borish metodikasini ilgari suradi. CEFR bo'yicha zamonaviy o'quv materiallari sonining oshib borishi va til o'rganuvchilar orasida keng qamrovlilikning yoyilishi bu tilga bo'lgan qiziquvchilar sonini oshirib bormoqda. CEFRning arab tili ta'limiga integratsiya qilinish jarayonlari hozirgi kunga qadar ham davom etayotgani bu mavzu bo'yicha aniq xulosa berish jarayonlarini yanada cho'zilishiga sabab bo'lmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aguilar V., Canada L.M., Santillan Grimm P., editors, 2010, *Arabele 2009. Enseñanza y aprendizaje de la lengua árabe*, Murcia, Editum.
2. Aguilar V., Manzano M.A., Canada L.M., Saleh W. and SantillanGrimm P., editors, 2014, *Arabele 2012. Enseñanza y aprendizaje de la lengua árabe*, Murcia, Editum.
3. Antonella Ghersetti, Andrea Facchin. *Teaching arabic as a foreign language: Origins, Developments and Current Directions*.
4. Ayoob Y. Jadwat. *Teaching of Arabic as a foreign language (TAFL): A study of the communicative approach in relation to Arabic. // A thesis submitted for the degree of PhD. Bibliotheca universitates Andreane, 1987.*
5. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. // Modern languages division. Strasbourg, 2001.*
6. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment: Structured overview of all CEFR scales.*

7. Norboyev Z. A. Arab tilida cefr mezonlari asosida yaratilgan A1 darajadagi o‘quv dasturlariga qo‘yiladigan talablar. // *Academic research in educational sciences*, 3 (8), 5-11. muminovich Norboyev, 2022.
8. Norboyev Z. A. O‘zbekistonda CEFR mezonlari asosida yangi avlod darsliklarini yaratishning me‘yoriy-uslubiy asoslari. // *Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi*, 1(1). *Academic research in educational sciences*, 3 (8), 2023. 5-11.
9. Norboyev Z. CEFR mezonlari asosida yaratilgan yangi avlod darsliklarining arab tilini o‘rgatishdagi o‘ziga xosligi. // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 ( Special Issue 24), 2022. 497-506.
10. Mohamed S. The development of an Arabic curriculum framework based on a compilation of salient features from CEFR level descriptors. // *The Language Learning Journal. Volume-5, 2023 –Issue 1*.

## REFERENCES

1. Aguilar V., Canada L.M., (2010) Santillan Grimm P., editors, *Arabele 2009. Ensenanza y aprendizaje de la lengua drabe*, Murcia, Editum.
2. Aguilar V., Manzano M.A., Canada L.M., Saleh W. and Santillan Grimm P., editors, (2014). *Arabele 2012. Ensenanzay aprendizaje de la lengua arabe*, Murcia, Editum.
3. Antonella Ghersetti, Andrea Facchin. *Teaching arabic as a foreign language: Origins, Developments and Current Directions*.
4. Ayoob Y. Jadwat. (1987). *Teaching of Arabic as a foreingn language (TAFL): A study of the communicative approach in relation to Arabic. A thesis submitted for the degree of PhD. Bibliotheca universitates Andreane*.
5. Council of Europe. (2001). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Modern languages devision. Strasbourg*.

6. Council of Europe. (2021) Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment: Structured overview of all CEFR scales.
7. Norboyev Z. A. (2022). Requirements for a1 level curriculums in arabic created on the basis of cefr criteria. Academic research in educational sciences, 3 (8), 5-11.
8. Norboyev Z. A. (2023). Normative-methodical basis of creating new generation textbooks based on cefr criteria in Uzbekistan. Science news conference, 1(1). Academic research in educational sciences, 3 (8), 5-11.
9. Norboyev Z. (2022). Characteristics of new generation textbooks created on the basis of cefr criteria in teaching the arabic language. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 ( Special Issue 24), 497-506.
10. S. Mohamed. (2023). The development of an Arabic curriculum framework based on a compilation of salient features from CEFR level descriptors. The Language Learning Journal. Volume-5, Issue 1.